



Nargiza YUSUPOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, PhD
E-mail: nargizanigmatovna@mail.com

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti PhD Sh.Bekmurotova taqrizi asosida

METHODS OF DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE THROUGH AN INDIVIDUAL LEARNING TRAJECTORY

Annotastion

This article discusses the concept of an individual learning trajectory (ILT), which is formed in the educational process taking into account the individual needs, abilities and personal characteristics of students, its theoretical foundations and methodological possibilities for the development of linguistic competencies. The phonetic, lexical, grammatical and speech components of linguistic competence are analyzed, and practical information is provided on the results achieved through the use of ILT in the educational process.

Key words: Individual learning trajectory, linguistic competence, methodology, person-centered education, individualization, differential approach.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ЧЕРЕЗ ИНДИВИДУАЛЬНУЮ ТРАЕКТОРИЮ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматривается понятие индивидуальной траектории обучения (ИТО), формируемой в образовательном процессе с учётом индивидуальных потребностей, способностей и личностных особенностей обучающихся, её теоретические основы и методические возможности для развития языковых компетенций. Анализируются фонетический, лексический, грамматический и речевой компоненты языковой компетенции, а также приводятся практические сведения о результатах, достигаемых при использовании ИТО в образовательном процессе.

Ключевые слова: Индивидуальная траектория обучения, языковая компетенция, методика, личностно-ориентированное обучение, индивидуализация, дифференцированный подход.

INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan individual ta'lim trayektoriyasi (ITT) tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari yoritiladi. Lingvistik kompetensiyaning fonetik, leksik, grammatik va nutqiy tarkiblari tahlil qilinadi, shuningdek, ta'lim jarayonida ITTni qo'llash orqali erishilgan samaralar haqida amaliy ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Individual ta'lim trayektoriyasi, lingvistik kompetensiya, metodika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individuallashtirish, differensial yondashuv.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayonida yuz berayotgan tub o'zgarishlar inson kapitaliga, ya'ni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga bo'lgan e'tiborni keskin oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "inson kapitalini rivojlantirish" konsepsiyasi asosida umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Ana shunday muhim kompetensiyalardan biri bu – lingvistik kompetensiyadir. Chet tili o'qitishda lingvistik kompetensiya nafaqat fonetik, leksik va grammatik bilimlarni, balki ulardan kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Biroq o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli ta'lim jarayonida individuallashtirilgan yondashuvni qo'llash zarurati tug'iladi.

Shu nuqtai nazardan individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasi ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi. ITT o'quvchiga o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim yo'lini tanlash hamda bilimlarni izchil rivojlantirish imkonini

beradi. Mazkur maqolada ITT tushunchasining nazariy asoslari, lingvisti. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish jarayoni nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini, balki uning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ham belgilab beradi. Xususan, lingvistik kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim hamda uzluksiz ta'lim tizimida eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki lingvistik kompetensiya — bu shunchaki grammatik qoidalarni yod olish emas, balki ularni kommunikativ vaziyatda to'g'ri qo'llash, o'z fikrini ravon va aniq ifodalash qobiliyatidir. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2021-yil 19-maydagi "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Unda chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish masalalariga alohida urg'u berilgan[1]. Ta'lim samaradorligini ta'minlashda an'anaviy o'qitish usullari yetarli bo'lmay qolmoqda. Chunki sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil

yondashuvni qo'llash ularning shaxsiy qiziqishlari, bilim darajasi va o'zlashtirish tezligidagi farqlarni inobatga olmaydi. Shu bois individual ta'lim trayektoriyasi (ITT) tushunchasi bugungi ta'lim jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. ITT – bu har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ta'lim yo'nalishini belgilash va amalga oshirish jarayonidir [2].

ITT orqali ta'limni tashkil etish o'quvchilarda:

mustaqil o'qish va izlanish ko'nikmalarini;

kommunikativ vaziyatlarda o'z fikrini erkin ifodalash qobiliyatini;

fonetik, leksik va grammatik bilimlarni uyg'un qo'llash mahoratini rivojlantiradi.

Shunday ekan, mazkur maqolada ITT tushunchasining nazariy asoslari, lingvistik kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi, shuningdek, uni rivojlantirish metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tajriba-sinov natijalari asosida ITTning samaradorligi yoritilib, umumiy xulosalar hamda tavsiyalar beriladi. Kompetensiyani rivojlantirishdagi metodlari va amaliy natijalari tahlil qilinadi.

1. Individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari

Individual ta'lim trayektoriyasi — bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, bilim darajasi, ehtiyojlari va maqsadlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ta'limiy yo'l bo'lib, unda ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimi shaxsga moslashtiriladi. [2].

ITT tushunchasi birinchi bor XX asr oxirida G'arb pedagogikasida keng qo'llanila boshlandi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida har bir o'quvchi uchun alohida ta'lim yo'lini shakllantirish g'oyasi ilgari surildi. Keyinchalik ushbu g'oya Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda keng tadbqiq etildi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham ITT g'oyasi keyingi yillarda faol qo'llanila boshladi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "O'quvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratilmoqda.

ITTning asosiy tamoyillari:

Individuallashtirish – o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish;

Moslashuvchanlik – ta'lim jarayonini ehtiyoj va vaziyatga qarab o'zgartirish;

Izchillik – bosqichma-bosqich rivojlanishni ta'minlash;

Shaxsiy mas'uliyat – o'quvchining o'z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashuvi.

2. Lingvistik kompetensiya va uning tarkibiy qismlari

Lingvistik kompetensiya til o'rganishning eng muhim tarkibiy qismidir. U quyidagi elementlardan iborat:

Fonetik kompetensiya — tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'u va intonatsiyani o'zlashtirish.

Leksik kompetensiya — lug'at boyligini orttirish, so'z birikmalaridan to'g'ri foydalanish.

Grammatik kompetensiya — grammatik qoidalarni amaliy qo'llash qobiliyati.

Nutqiy kompetensiya — kommunikativ vaziyatlarda til vositalarini erkin qo'llash.

Bu tarkibiy qismlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchining umumiy lingvistik tayyorgarligini shakllantiradi.

3. ITT orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirish metodlari

Individual ta'lim trayektoriyasi (ITT) o'quvchilarning shaxsiy qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning lingvistik kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Lingvistik kompetensiya fonetik, leksik, grammatik va pragmatik tarkibiy qismlardan iborat bo'lgani uchun, ITT asosida qo'llaniladigan metodlar ham kompleks xarakterga ega bo'lishi lozim. Individual ta'lim

trayektoriyasi asosida o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

3.1. Individuallashtirilgan topshiriqlar metodi

O'quvchilarga beriladigan mashqlar ularning bilim darajasiga qarab tabaqalashtiriladi. Kuchli o'quvchilar murakkabroq grammatik konstruksiyalarni qo'llaydi, qiyinchilikka duch kelayotganlar esa soddashlash orqali asta-sekin rivojlanadi. Har bir o'quvchining bilim darajasiga qarab topshiriqlar tayyorlanadi. Masalan: kuchli o'quvchi uchun murakkab gap qurilishlari, sinonim va antonimlarni qo'llash mashqlari; sustroq o'quvchilar uchun esa soddashlash gaplarni tuzish va lug'atni kengaytirish vazifalari beriladi. Bu metod o'quvchilarda "individual muvaffaqiyat" hissinii kuchaytiradi va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.

3.2. Modulli ta'lim metodi

Ta'lim materiali modullar asosida tashkil etiladi. Har bir modul fonetik, leksik, grammatik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi mashqlarni o'z ichiga oladi. Modul yakunida o'quvchi mustaqil baholanadi va keyingi bosqichga o'tadi.

3.3. Elektron platformalardan foydalanish

Onlayn resurslar va mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Duolingo, Quizlet, Moodle kabi platformalar shaxsiy trayektoriyani yaratishda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchiga shaxsiy login-parol berilib, u o'z trayektoriyasiga mos ravishda onlayn mashqlarni bajaradi. Elektron platformalar o'qituvchi uchun ham monitoring olib borishga imkon yaratadi (statistika, reyting, individual yutuqlar).

3.4. Differensial yondashuv metodi

Bir sinfdagi o'quvchilarning til bilimlari farqlanishini inobatga olib, topshiriqlar darajalarga bo'linadi. Bu metod o'quvchilarni ortiqcha qiynamasdan, ularning qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchilar kichik loyihalar ustida ishlaydi (masalan, ingliz tilida "My Hobby", "Our School Life" mavzusida miniloyiha). Loyihalarda fonetik, leksik va grammatik material uyg'unlashtiriladi. Natija sifatida o'quvchi o'z bilimini real kommunikativ vaziyatda qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

3.5. Portfolio texnologiyasi

O'quvchining yutuqlari, mustaqil ishlari va til materiallari maxsus papkada jamlanadi. Bu nafaqat o'zlashtirishni baholash, balki o'quvchini o'z bilimini nazorat qilishga ham o'rgatadi. O'quvchining barcha topshiriqlari, yozma ishlari, og'zaki chiqishlari, onlayn baholash natijalari jamlanadi. Bu texnologiya o'quvchining shaxsiy rivojlanishini uzluksiz kuzatish imkonini beradi. O'quvchi o'zining qayerda xatoga yo'l qo'yayotganini aniq ko'radi va individual yo'nalishda ustida ishlaydi. [4].

4. Amaliy tajriba va natijalar

Tajriba Toshkent shahridagi 3 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 7–8-sinflar o'quvchilari bilan o'tkazildi.

Tajriba guruhida o'quvchilarga ITT asosida darslar tashkil etildi: individual topshiriqlar, elektron platformalar va portfolio texnologiyasi qo'llanildi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy dars metodlari asosida ta'lim berildi.

Natijalar:

Tajriba guruhidagi o'quvchilarning lug'at boyligi o'rtacha 28 % ga oshdi.

Grammatik kompetensiyani qo'llash ko'rsatkichlari 22 % ga yaxshilandi.

Fonetik kompetensiya bo'yicha talaffuzdagi xatolar 30 % ga kamaydi.

O'quvchilarning nutqiy faolligi ortdi: erkin muloqotda ishtirok etish 2 barobarga ko'paydi.

O‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatdiki, ITT asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani samarali rivojlantiradi.

Xulosa va tavsiyalar.

- ITT ta’lim samaradorligini oshiradi.

- Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda individuallashtirilgan topshiriqlar, modulli o‘qitish va elektron platformalar samarali.

- ITT asosida o‘qitilgan o‘quvchilarda lug‘at boyligi va nutqiy kompetensiya sezilarli darajada rivojlanadi.

- Ta’lim tizimida ITTni keng joriy etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Халилова Г. Индивидуализированный та’лим texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
4. Хўжаева III. Lingvodidaktik kompetensiyalarni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
5. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2015.
6. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
7. Little, D. Learner Autonomy and Language Learning. – Dublin, 2003.
8. CEFR. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge, 2018.
9. Benson, P. Teaching and Researching Autonomy. – Routledge, 2011.
10. Anderson, J. Active Skills for Communication. – Oxford University Press, 2013.
11. Nigmatovna, Y. N. (2024). Bilimlarni individuallashtirish orqali o‘quvchilarda lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishni tashkilashtirish. *american journal of education and learning*, 2(5), 976-982.
12. Юсупова, Н. Н. (2021). Применение прагматической компетенции на занятиях английского языка. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 1248-1253.
13. Yusupova, N. N., Ganihanova, M. B., & Rustamjonovna, Y. M. (2022). Intensive Learning of English in the Pedagogical Educational Environment on the Basis of Media Technologies. *Journal of Positive School Psychology*, 6(4), 5666-5674.
14. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
15. Nigmatovna, Y. N. (2024). Bilimlarni individuallashtirish orqali o‘quvchilarda lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishni tashkilashtirish. *american journal of education and learning*, 2(5), 976-982.
16. Юсупова, Н. Н. (2021). Применение прагматической компетенции на занятиях английского языка. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 1248-1253.
17. Mirzayeva, N. (2024). Innovative approaches in the methodology of teaching foreign languages. *Konferensiya 2024*, 1(01).
18. Mirzayeva, N. (2025, May). The Artistic psychological interpretation of nature and human relations in the stories of shukur kholmiraev. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).